QO‘QON SHAHRIDA FAOLIYAT OLIB BORAYOTGAN KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING SHAHAR IQTISODIY HAYOTIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI.

Qodirov Muhsinjon Muhtorjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti, Farg‘ona

Annotatsiya: Ushbu maqolada so‘ngi yillarda Qo‘qon shahrida turli sohalarda faoliyat olib borayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni, tarmoqlar bo‘yicha taqsimoti, faoliyat ko‘satishni to‘xtatgan firmalar soni statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon shahar, statistika, kichik tadbirkorlik, savdo, qishloq xo‘jaligi, aloqa, qurilish, sanoat.

Abstract: In this article, the number of small business entities operating in various fields in the city of Kokand, their distribution by sectors, and the number of companies that have stopped operating in the city of Kokand are analyzed based on statistical data.

Key words: Kokand city, statistics, small business, trade, agriculture, communication, construction, industry.

Аннотация: В данной статье на основе статистических данных анализируется количество субъектов малого предпринимательства, работающих в различных сферах в городе Коканд, их распределение по отраслям, а также количество компаний, прекративших деятельность в городе Коканд.

Ключевые слова: город Коканд, статистика, малый бизнес, торговля, сельское хозяйство, связь, строительство, промышленность.

O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlikka va uni rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Ayniqsa, bu borada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni riovjlantirish sohasi alohida ahamiyatga ega. Bunga misol sifatida quyidagi misolni keltirib o‘tishimiz mumkin. Ya’ni 2011-yil mamlakatimizda “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish” yili deb nomlanganligining o‘ziyoq bu soha iqtisodiy hayotimizda katta mavqe’ga ega ekanligini anglab yetishimiz mumkin. keyinchalik ham yurtimizda bir qancha qonunlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida qabul qilingan. Masalan, “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, “Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi prezident farmon va qarorlari shular jumlasidandir.

Farg‘ona viloyatining muhim iqtisodiy markazlaridan biri bu Qo‘qon shahri hisoblanadi. Ayniqsa so‘ngi yillarda shahar hududida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar tufayli shahar iqtisodiy hayotida sezilarli darajada o‘sish kuzatildi. Ayniqsa, kichik tadbirkorlik sohasida bu yaqqol ko‘zga tashlanadi.

2017-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, Qo‘qon shahrida mavjud kichik tadbirkorlik subyektlarining soni 2806 ta bo‘lib, shulardan 2768 tasi faoliyatini davom ettirayotgan bo‘lib, 38 tasi esa o‘z faoliyatini to‘xtatgan [3; 85]. Shundan qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi bo‘yicha jami 61 ta subyektning hammasi o‘z faoliyatini olib borgan bo‘lsa, sanoat sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi jami 849 ta subyektning 9 ta o‘tgan yilda o‘z faoliyatini to‘xtatgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich umumiy miqdorning 0,01 % qismini tashkil etadi.

Eng ko‘p faoliyat olib borilayotgan sohalar ichida yuqorida keltirib o‘tilgan sanoat sohasi yetakchilik qilayotgan bo‘lsa, undan keyingi o‘rinlarni 680 ta kichik tadbirkorlik subyekti bilan savdo sohasi, 269 talik ko‘rsatkich bilan Axborot va aloqa sohasi egallab turibdi.

Faoliyatini to‘xtatgan sohalarni tahlil qilsak, saonatda 9 ta, qurilish sohasida 4 ta, savdoda 12 ta, tashish va saqlashda 6 ta, axborot va aloqa sohasida 3 ta va boshqa turlarda 4 ta kichik tadbirkorlik subyekti faoliyatini to‘xtatgan [3; 85].

2018-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra esa jami Qo‘qon shahrida o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘ygan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni 3119 tani tashkil etib, shulardan 3095 ta faoliyatini davom ettrigani holda, o‘tgan 2017-yilda 24 tasi faoliyatini yakunlagan [4; 120]. 2017-yilda jami Qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliq xo‘jaligi sohasida 66 ta, Sanoatda 1089 ta, Qurilishda 212 ta, Savdo sohasida jami 746 ta, tashish va salqash yo‘nalishida 193 ta, Yashash va ovqatlanish bo‘yicha

xizmatlar sohasida 149 ta, Axborot va aloqada 170 ta, Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasida 57 ta va boshqa turli yo‘nalishlarda jami 437 ta kichik tadbirkorlik subyekti faoliyatini davom ettirib kelgan [4; 120-121]. 2017-yilda esa o‘z faoliyatini to‘xtatgan kichik tadbirkorlik subyektlarining 5 tasi Sanoatda, 3 tasi Qurilishda, 8 tasi Savdo sohasida, 3 tasi tashish va salqash yo‘nalishida, 2 tasi Axborot va aloqada sohasida hamda 3 tasi boshqa turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borgan [4; 120-121]. Yuqroridagi barcha ma’lumotlarni tahliliga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Qo‘qon shahar hududida kichik tadbirkorlik sohasining turli sohalari yildan-yilga rivojlanib bormoqda, raqobatga bardosh bera olmay yopilayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni umumiy miqdorning 0,01-0,02 % qismini tashkil etmoqda.

Keyingi yillarda ya’ni, 2018-2020-yillardagi soha erishgan natijalarni quyidagi jadval asosida ko‘rib chiqsak va yillar davomidagi o‘zgarishlarni o‘zaro solishtirib tahlil qilib chiqsak:

1-jadval.

Qo‘qon shahrida faoliyat olib borayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari haqida ma’lumot. (2018-2020-yillar, faoliyat olib borayotganlar) [5; 82-83].

T/R	Soha nomi	01.01.2019	01.01.2020	01.01.2021
	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	82	94	116
	Sanoat	1194	1341	1430
	Qurilish	251	293	320
	Savdo	828	1193	1530
	Tashish va saqlash	209	229	247
	Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	187	212	255
	Axborot va aloqa	151	167	192
	Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	67	71	83
	Boshqa turlar	500	545	580

Jadvalda berilgan statistik ma’lumotlarni o‘zaro solishtirib tahlil qilib chiqsak. 2018-yilda Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi sohasidagi subyektlarning soni 2019-yilda 12 taga, 2020-yilda esa o‘tgan yilga nisbatan yana 22 taga ko‘paygan.

Sohalar bo‘yicha eng ko‘p o‘sishlardan biri sanoat tarmog‘ida faoliyat olib borayotgan kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lib 2019-yilda o‘tgan 2018-yilga nisbatan o‘sish +147 taga ko‘paygan, 2020-yilda mos ravishda +89 taga o‘sish kuzatilgan. Savdo sohasida faoliyat olib boruvchi kichik tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi subyektlarning soni 2018-yilga nisbatan 2020-yilda salkam 2 barobarga ortib, +702 ta ko‘rsatkichni qayd etgan, o‘sish esa deyarli 185 % ni tashkil qilgan.

Har bir sohada ma’lum bir uzilishlar kuzatilishi mumkin, misol uchun 2018-yilda jami 24 ta kichik tadbirkorlik subyekti faoliyatini to‘xtatganligi rasmiy statistik ma’lumotlarda qayd etilgan bo‘lsa, 2019-yilda ushbu raqam o‘zgarmasdan qolgan, ya’ni yil davomida yana 24 ta kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini to‘xtatgan. Lekin 2020-yilda ushbu ko‘rsatkich keskin o‘sib 90 talik natijagacha ko‘tariladi. Bunday ko‘rsatkichga yetishiga sabab kichik tadbirkorlik subyektlarning soni yildan-yilga ko‘payib borayotganligdadir. Ya’ni 2020-yilda jami faoliyat olib boruvchi kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) jami 4843 tadan 90 tasi yana ham aniqrog‘i salkam 0,02 foiz qismi faoliyat ko‘satmagan kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan [5; 83].

Xulosa qilib aytsih mumkinki, Qo‘qon shahri iqtisodiyotida soha vakillarining ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. Bunga eng asosiy ta’sir ko‘rsatgan omillardan biri sifatida hukumatimiz tomonidan yaratib berilayotgan imkoniyat va imtiyozlarni aytib o‘tishimiz mumkin. Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining shahar aholisining ish bilan ta’minlanishi va aholiga sifatli xizmat ko‘rsatilishini ta’minlashga katta xizmat qiladi. Keyingi yillarda tarmoqda faoliyat

olib boruvchi subyektlarning soni yana ham ortishiga va aholi hayoti uchun qulaylik yaratishda davom etishiga ishonchim komil.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2015-yil 15-maydagi PF-4725-son Farmoni. https://www.lex.uz/uz/docs/-2708160

2. Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 29.11.2016 yildagi PQ-2663-son qarori. https://www.lex.uz/uz/docs/-5077811

3. Qo‘qon shahrining 2016-2018-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati to‘g‘risida AXBOROTNOMA. Farg‘ona – 2019. 99-bet

4. Qo‘qon shahrining 2017-2019-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati to‘g‘risida AXBOROTNOMA. Farg‘ona – 2020. 99-bet

5. Qo‘qon shahrining 2018-2020-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati to‘g‘risida AXBOROTNOMA. Farg‘ona – 2021. 110-bet